

## IJTIMOYIY DESTRUKSIYA: MAZMUNI VA XUSUSIYATLARI, SABABLARI VA OQIBATLARI

*Bekmurodova Gulshoda Hayitovna, Qarshi davlat universiteti "Falsafa va sotsiologiya" kafedrasida dotsenti, falsafa fanlari doktori (DSc)*

## SOCIAL DESTRUCTION: CONTENT AND CHARACTERISTICS, CAUSES AND CONSEQUENCES

*Bekmurodova Gulshoda Hayitovna, associate professor of the Department of "Philosophy and Sociology" of Karshi State University, Doctor of Philosophy (DSc)*



[https://orcid.org/\(0009-0005-2610-8292\)](https://orcid.org/(0009-0005-2610-8292))

*e-mail:*

[bekmurodovagulshoda77@gmail.com](mailto:bekmurodovagulshoda77@gmail.com)

## СОЦИАЛЬНАЯ ДЕСТРУКЦИЯ: СОДЕРЖАНИЕ И ХАРАКТЕРИСТИКИ, ПРИЧИНЫ И ПОСЛЕДСТВИЯ

*Бекмуродова Гульшода Хаитовна, доцент кафедры "Философия и социология" Каршинского государственного университета, доктор философских наук (DSc)*

**Annotatsiya:** Maqolada ijtimoiy destruksiyaning mazmuni, xususiyatlari va namoyon bo'lish shakllari haqida fikrlar tahlil qilinadi. Uning yuzaga kelishi, shakllanishi va kechishida sistema va element, mazmun va shakl, mohiyat va hodisa, sabab va oqibat, imkoniyat va voqelik, zaruriyat va tasodif dialektikasi, shuningdek, miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga o'tishi, qarama-qarshiliklar birligi va kurashi, inkorni inkor qonunlari o'ziga xos tarzda namoyon bo'lishi va iqtisodiy, siyosiy, sotsial, ma'naviy destruksiya shakllari haqida falsafiy mulohaza yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** ijtimoiy destruksiya, destruktiv tendensiyalar, konstruktiv tendensiyalar, progress, regress, negativlik, iqtisodiy destruksiya, siyosiy destruksiya, ijtimoiy destruksiya, ma'naviy destruksiya.

**Annotation:** the article analyzes thoughts about the content, features and forms of manifestation of social degradation. In its occurrence, formation and transition, a philosophical reflection is made on the system and element, content and form, essence and phenomenon, cause and effect, possibility and reality, necessity and coincidence dialectics, as well as the transition of quantitative changes to qualitative changes, the unity and struggle of contradictions, the manifestation of denial laws in a unique way and forms of economic, political, social, spiritual.

**Key words:** social deconstruction, destructive tendencies, constructive tendencies, progress, regression, negativity, economic deconstruction, political deconstruction, social deconstruction, spiritual deconstruction.

**Аннотация:** В статье анализируется содержание, характеристики и формы проявления социальной деструкции. В своем возникновении, становлении проявляется диалектика системы и элемента, содержания и формы, сущности и события, причины и следствия, возможности и действительности, необходимости и случайности, а также перехода количественных изменений в качественные изменения. Противоположности и борьбы, по-своему проявляются законы отрицания отрицания. С точки зрения социально-философского осмысления выявляются формы экономической, политической, социальной и духовной деструкции.

**Ключевые слова:** социальная деструкция, деструктивные тенденции, конструктивные тенденции, прогресс, регресс, негативность, экономическая деструкция, политическая деструкция, социальная деструкция, духовная.

**KIRISH.** Davrlar o'tishi bilan progress, taraqqiyot, pozitivlik, bunyodkorlik naqadar jadallashsa, regress, tanazzul, negativlik, vayronkorlik ham shu qadar ildiz ota bordi. Bir tomondan, fan va texnika yutuqlarining ishlab chiqarishga ildam joriy etilishi iqtisodiy taraqqiyot sur'atlarini tezlashtirdi. Iqtisodiy zafarlar davlatlarga o'z funksiyalarini yanada to'laqonli ijro etish imkonini taqdim qildi. Shu munosabat bilan qator falsafiy savollar yuzaga kelmoqda. Nega insoniyat taraqqiyotga yuz tutgani sayin jamiyatdagi regressiv, negativ, vayronkorlik holatlari, jarayonlari ham tobora o'tkirlashib bormoqda? Nega mislsiz sa'y-harakatlarga qaramasdan mavjud negativ va vayronkorlik holatlarini bartaraf etib bo'lmayapti? Balki regressivlik, negativlik, vayronkorlik holatlari shakllanishining ham o'ziga xos qonuniyatlari mavjuddir? Balki har safar yuzaga kelgan salbiy jarayonlar va ijtimoiy illatlarni bir-bir sanab o'tirmasdan, ularni yaxlit tarzda tasavvur qilishga odatlanishimiz lozimdir? Ushbu savollarga javob berishga bo'lgan urinishlar ijtimoiy falsafada o'tgan asrning ikkinchi yarmidan e'tiboran shakllana boshlagan ijtimoiy destruksiya nazariyasida o'z ifodasini topmoqda.

#### ADABIYOTLAR

#### TAHLILI.

“Destruksiya” tushunchasi lotincha “destructio” (buzmoq, vayron etmoq) so‘zidan olingan[1]. Ushbu tushuncha odatda “konstruksiya” (lotincha “constructio”– tuzmoq, yaratmoq, bunyod qilmoq) so‘zining[2] antipodi, antonimi sifatida ishlatiladi. Destruksiya turli fanlarda faol qo‘llaniladigan tushunchalardan biridir. Masalan, psixologiyada mazkur tushuncha o‘z-o‘ziga yoki jamiyatga nisbatan amalga oshirilgan vayronkorlik xatti-harakatlarini ifodalaydi. Bunda tashqi va ichki destruktiv xulq-atvor tasniflanadi. Tashqi xulq-atvor sifatida sotsiumni vayron qilish variatsiyalari (vandalizm, yodgorliklarni vayron qilish, qadriyatlarga hurmatsizlik, san’at asarlarini yo‘q qilish, tabiiy muhitga ziyon yetkazish va sh.k.) tilga olinadi. Ichki destruktiv xulq-atvor shakllari suitsid, alkogolizm, giyohvandlik, toksikomaniya va shu kabilardan tarkib topadi[3].

Ijtimoiy falsafada ijtimoiy destruksiya deganda jamiyatning turli sohalaridagi barqarorlikka putur yetkazuvchi, uni taraqqiyotdan mosuvo qiluvchi, regress va tanazzulga eltuvchi jarayon va omillar, negativlik va vayronkorlik holatlari tushuniladi. Ijtimoiy destruksiyaning mazmuni, jamiyatda namoyon bo‘lish shakllari, xususiyatlari Frankurt maktabi vakillari G.Markuze va E.Fromm, M.Xorkxaymer va T.Adorno qarashlarida[4,s.4]. Ijtimoiy-destruktiv jarayonlarning yuzaga kelishi, shakllanishi va kechishi qator dialektik xususiyatlarga ega.

Ijtimoiy destruktiv jarayonlarda inkorni inkor qonuni namoyon bo‘ladi; birinchi me‘yor davomida destruksiya ma‘lum xossalar va tarkibga ega bo‘ladi, ikkinchi me‘yorda ular buziladi; uchinchi me‘yorda “Me‘yor 1 va Me‘yor 2 davomida mavjud bo‘lgan ayrim (eng ahamiyatli) xossa hamda tarkiblar uyg‘unlashtiriladi (sintez qilinadi)”[1,74].

Ijtimoiy destruksiyaning asosiy shakllaridan biri iqtisodiy destruksiya bo‘lib, u iqtisodiy rivojlanishga to‘sqinlik qiladi. Iqtisodiy omillarning ijtimoiy sohaga ta‘sirini alohida e‘tirof qiladilar. “Jamiyatning ijtimoiy tarkibini tushunishda, - deb yozadi A.G.Spirkin, - ishlab chiqarish vositasi, mehnat taqsimotining iqtisodiy sohasi tushunchalari muhim ahamiyatga ega”[6.518].

#### TADVIQOT METODOLOGIYASI.

Maqolani yozishda analiz va sintez, deduksiya, induksiya metodlaridan va tarixiylik, mantiqiylik prinsiplaridan foydalanildi.

**TAHLIL VA NATIJALAR.** 1.Ijtimoiy-destruktiv jarayonlarda sistema va element dialektikasi namoyon bo‘ladi; ijtimoiy destruksiya o‘z elementlari va tarkibiga ega yaxlit sistemadir, konkret negativ jarayon va holatlar esa uning elementlarini tashkil etadi; bu elementlarning ayrimlari barqaror, boshqalari esa beqaror xarakterga ega bo‘ladi;

2. Ijtimoiy-destruktiv jarayonlarda mazmun va shakl dilektikasi namoyon bo‘ladi; ijtimoiy destruksiyaning mazmuni regress va tanazzul, negativlik va vayronkorlik bilan bog‘liq, lekin u turli ijtimoiy shart-sharoitlarda turli shaklda yuz beradi;

ijtimoiy destruksiya mazmunidagi o'zgarish uning shakllariga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi;

3. Ijtimoiy-destruktiv jarayonlarda mohiyat va hodisa dialektikasi namoyon bo'ladi; har qanday negativlik va vayronkorlik holatlari o'zining muhim va uzoq muddat saqlanib turadigan xususiyatlariga ega bo'ladi, uning mohiyatini tashkil qiluvchi mazkur xususiyatlar turli hodisa, voqea va ijtimoiy vaziyatlarda o'z ifodasini topadi;

4. Ijtimoiy-destruktiv jarayonlarda sabab va oqibat dialektikasi namoyon bo'ladi; ijtimoiy destruksiya o'z-o'zidan yuz beradigan jarayon emas, uning vujudga kelishiga qator sabablar turtki beradi, bu sabablar esa, o'z navbatida, destruktiv oqibatlarni keltirib chiqaradi; buning ustiga, ijtimoiy destruksiyada "sabab-oqibat" dialektikasi turli tarzda, shaklda sodir bo'ladi;

5. Ijtimoiy-destruktiv jarayonlarda imkoniyat va voqelik dialektikasi namoyon bo'ladi; har qanday jamiyatda ijtimoiy-destruktiv jarayonlar va holatlarning paydo bo'lishi imkoniyati mavjud bo'ladi, muayyan ijtimoiy shart-sharoitlar ularning ayrimlarini voqelikka aylantiradi, boshqalarini esa bartaraf qiladi;

6. Ijtimoiy-destruktiv jarayonlarda zaruriyat va tasodif dialektikasi namoyon bo'ladi; ijtimoiy destruksiyaning o'zi zaruriy, qonuniy xarakterga ega – ijtimoiy taraqqiyot va progress, pozitiv jarayonlar va bunyodkorlik mavjud ekan, tanazzul va regress, negativ holatlar va vayronkorlik ham bo'laveradi, biroq bu jarayon va holatlarning konkret vaziyatdagi konkret ifodasi tasodifiylik bilan bog'liq;

7. Ijtimoiy destruktiv jarayonlarda miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga o'tishi qonuni namoyon bo'ladi; xususan, jamiyatning turli sohalaridagi destruksiya avval kichik miqdorlarda sodir bo'ladi; miqdoriy o'zgarishlar ma'lum me'yorga yetgach, sohada tub sifatiy o'zgarishlar yuzaga keladi;

8. Ijtimoiy destruktiv jarayonlarda qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonuni namoyon bo'ladi; xususan, progress va regress, taraqqiyot va tanazzul, pozitivlik va negativlik, bunyodkorlik va vayronkorlik ijtimoiy voqelikning bir-birini taqozo etuvchi tomonlaridir; progress, taraqqiyot, pozitivlik, bunyodkorlik ko'lamini kengaytgan va jadallashgan sayin regress, tanazzul, negativlik, vayronkorlik ham shu qadar ildiz ota boradi;

Ijtimoiy-destruktiv jarayon va holatlar jamiyatning turli sohalarida namoyon bo'lishi mumkin. Barcha sohalarida u sistemaning asosiy xususiyatlarini yemiruvchi va barqarorligiga putur yetkazuvchi omil sifatida ro'y beradi.

Siyosiy soha xususiyatlari hamda barqarorligini yemiruvchi ijtimoiy-destruktiv jarayon va holatlar ham talaygina. Jamiyat siyosiy sohasiga xos bo'lgan yuqoridagi xususiyatlar siyosiy destruksiyaning asosiy yo'nalishlarini belgilab olish imkonini beradi. Shunday qilib, bu yo'nalishlar quyidagilardan iborat: hokimiyat diskreditatsiyasi, siyosiy partiyalarning inertligiga sabab bo'luvchi omillar, fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatining besamarligiga sabab bo'luvchi omillar, "Fuqarolik jamiyati institutlari – fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari (mahalla), partiyalar, harakatlar, kasaba uyushmalari, jamoat birlashmalari va jamg'armalar, nodavlat notijorat tashkilotlari – fuqarolik jamiyati asosini tashkil etadi va uning mazmunini belgilaydi"[5].

Jamiyatning ijtimoiy sohasi ham turkum atributlarga ega. Birinchidan, ijtimoiy falsafada jamiyatning ijtimoiy sohasi deganda kishilar, ular mansub bo'lgan guruh va sinflar kabi ijtimoiy birliklar, millat va elat kabi etnik birliklar, oila kabi ijtimoiy institutlar va ular o'rtasidagi tarixan shakllangan munosabatlar yig'indisi nazarda tutiladi. Uning har bir elementi va ular o'rtasidagi munosabatlar xarakteri davr o'tishi bilan iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy-madaniy omillar ta'sirida o'zgarib boradi. Mutaxassislar bu borada iqtisodiy omillarning ijtimoiy sohaga ta'sirini alohida e'tirof qiladilar. "Jamiyatning ijtimoiy tarkibini tushunishda, - deb yozadi A.G. Spirkin, - ishlab chiqarish vositasi, mehnat taqsimotining iqtisodiy sohasi tushunchalari muhim ahamiyatga ega"[6.518]. Biroq, ijtimoiy soha faqat ijtimoiy va etnik birliklar, ijtimoiy institutlar va ular o'rtasidagi munosabatlardangina tarkib topmaydi.

**XULOSA.** Demak ijtimoiy destruksiya jamiyatning turli sohalaridagi rivojlanish va barqarorlikka putur yetkazuvchi, uni taraqqiyotdan mosuvo qiluvchi, regress va tanazzulga eltuvchi destruktiv tendensiyalarni vayronkorlik va negativ holatlar, jarayonlarni o'zida aks ettiradi.

Ijtimoiy destruktiv jarayonlar global xarakterga ega. Ijtimoiy-destruktiv jarayon va holatlar jamiyatning turli sohalarida namoyon

bo'lishi mumkin. Ijtimoiy destruksiya barcha sohalarda sistemaning asosiy xususiyatlarini yemiruvchi va barqarorligiga putur yetkazuvchi omil sifatida sodir bo'ladi.

Ijtimoiy destruktiv jarayonlar sistema va element, mazmun va shakl, mohiyat va hodisa, sabab va oqibat, imkoniyat va voqelik, zaruriyat va tasodif dialektikasi, shuningdek, miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga o'tishi, qarama-qarshiliklar birligi va kurashi, inkorni inkor qonunlari asosida shakllanadi va rivojlanadi.

Ijtimoiy destruksiya quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi: iqtisodiy destruksiya, siyosiy destruksiya, ijtimoiy destruksiya, ma'naviy destruksiya. Ijtimoiy destruksiya shakllari biri ikkinchisi bilan aloqadorlikda shakllanadi va rivojlanadi.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Деструкция.// Словарь иностранных слов. Составитель Комлев Н.Г.- М.: Эксмо-пресс, 2000.
2. Городяненко В. Социальная деструктивность: виды, механизмы и факторы актуализации.// Украинский социологический журнал, 2015, №1-2.- 72-с.
3. Хоркхаймер М., Адорно Т.В. Диалектика Просвещения. Философские фрагменты. М.; СПб., 1997.- С.10.
4. Маркузе Г. Эрос и цивилизация. Одномерный человек: Исследование идеологии развитого индустриального общества. - М.:АСТ, 2003.- С.11.
5. Choriyev S. Ontologiya. Darslik.- Qarshi: Fan va ta'lim, 2021.- B.74.
6. Спиркин А.Г. Философия.- М.: Гардарики, 2006.- С.518.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. "O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishga ko'maklashish borasidagi chora-tadbirlar to'g'risida".// lex.uz.
8. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari. J.4.- T.: O'zbekiston, 2020.- B.11.
9. Bekmurodova G.X. Ijtimoiy destruksiya va uning O'zbekistonda namoyon bo'lishi.- Monografiya. Qarshi. // Qarshi davlat universiteti, 2023.B.178
10. Муравьева Л.А. Германия в 30-е годы XX века. // Финансы и кредит, 2003, №17.- 82-с.
11. Румянцев М. Экономика общества Постмодерна: критический анализ.// Христианское чтение, 2012, №6.- 168-с.

